

**VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.06/29.10.2021.V.139.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

O‘RINOV HAQBERDI SADRIDDIN O‘G‘LI

**GOLSHTIN ZOTLI SIGIRLAR REPRODUKTIV FAOLIYATINI
RAG‘BATLANTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**16.00.02 – Hayvonlar patologiyasi, onkologiyasi va morfologiyasi. Veterinar akusherligi va
hayvonlar reproduksiyasi biotexnikasi**

**Veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

UO‘K:618:636.2:636.087:577.1

**Veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
ветеринарным наукам**

Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary sciences

O‘rinov Haqberdi Sadriddin o‘g‘li

Golshtin zotli sigirlar reproduktiv faoliyatini rag‘batlantirish usullarini
takomillashtirish.....3

Уринов Хақберди Садриддин угли

Совершенствование методов стимулирования репродуктивной деятельности
коров голштинской породы23

Urinov Khakberdi Sadriddin o‘g‘li

Improvement of methods of stimulation of reproductive activity of holstein
cows43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works47

**VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.06/29.10.2021.V.139.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

O‘RINOV HAQBERDI SADRIDDIN O‘G‘LI

**GOLSHTIN ZOTLI SIGIRLAR REPRODUKTIV FAOLIYATINI
RAG‘BATLANTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**16.00.02 – Hayvonlar patologiyasi, onkologiyasi va morfologiyasi. Veterinar akusherligi va
hayvonlar reproduksiyasi biotexnikasi**

**Veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/V145 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.viti-rasmiy.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz.) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kuldashev Otamurod Urazovich

veterinariya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Ilyasov Aziz Saidmurodovich

biologiya fanlari doktori, professor

Djumanov Sobirjon Murodovich

veterinariya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.06/29.10.2021.V.139.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «12» 12. soat «14⁰⁰» dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 141500. Samarqand viloyati, Toyloq tumani, Charog'bon MFY, Yangi Toyloq 1-qishlog'i 67 uy. tel.: (+99866) 666-56-60; e-mail: nivi@vetgov.uz)

Dissertatsiya bilan Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (4733 - raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 141500. Samarqand viloyati, Toyloq tumani, Charog'bon MFY, Yangi Toyloq 1-qishlog'i 67 uy. tel.: (+99866) 666-56-60; faks: (+99866) 666-56-66., e-mail: nivi@vetgov.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «27» 10 kuni tarqatildi.

(2025 yil «27» 10 dagi № 28 raqamli reestr bayonnomasi)



B.A.Elmuurodov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, vet.f.d., professor

F.S.Pulotov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, vet.f.f.d. (PhD), katta ilmiy
xodim

G.H.Mamadullaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, vet.f.d.,
katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda ko'pchilik davlatlarda mahsuldor qoramollar orasida vitamin-mineral almashinuvi buzilishlari natijasida urg'ochi hayvonlarning reproduktiv faoliyatida yetishmovchiliklari sigirlarning akusher-ginekologik kasalliklari bilan birgalikda kuyga kelish, otalanish va servis davrlarining uzoq bo'lib ketish kabi patologiyalarning rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Sigirlar reproduktiv organlarida bo'ladigan patologiyalarning rivojlanishida hayvonlarning yoshi, fiziologik holati va mahsuldorlik ko'rsatgichlarini hisobga olmagan holda silos-konsentrat tipdagi me'yorlashtirilmagan, to'yimliliigi past ratsionda hamda veterinariya-sanitariya sharoitlari buzilgan holatlarda boqish asosiy etiologik omillar hisoblanadi. «Respublikamizda har yili 30-40% sigirlar, 20-30% qochirish yoshidagi tanalar qisir qolmoqda, sigirlarning simptomatik bepushtligi 18,3%, alimentar bepushtligi 15,5% tashkil etadi»¹. «Sigirlarning 22-24,5% akusher-ginekologik kasalliklarning tarqalishiga sabab mineral moddalar almashinuvi buzulishlari hisoblanadi»². Shunga asoslangan holda qoramolchilik sohasida bepushtliklarni va tuqqandan keying ginekologik kasalliklarni tarqalishini o'rganish erta diagnoz qo'yish, yuqori samara beruvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Dunyoning ko'pchilik davlatlarida turli stress omillar va antisanitariya sharoitlari jumladan ozuqa ratsion tarkibining to'laqonli emasligi, yayratish maydonchalarini yo'qligi natijasida yuqori mahsuldor sigirlar orasida tuqqandan keyingi ginekologik kasalliklarning ko'p uchrashi, organizmda moddalar almashinuvi buzulishlari, organizm tabiiy rezistentligi pasayishi kuzatilmoqda. Yuqori mahsuldor golshtin zotli sigirlarda eng ko'p tarqalgan muammolardan biri bu reproduktiv organlarda bo'lib, asosan sut berish davrini yuqori chegarasiga kelganda ratsionda to'yimliliigi yuqori moddalarning yetishmasligi natijasida kelib chiqadi. Shu sababli sut va go'sht mahsuldorligining kamayishi va sifatining pasayishi, reproduktiv organlar faoliyatining yomonlashuvi, fiziologik jihatdan rivojlanmagan bola tug'ushi, o'sish rivijlanishdan ortda qolishi va kelgusida podani to'ldirish uchun yaroqsiz bo'lishi, sigirlardan xo'jaliklarda foydalanish muddatini qisqa bo'lishi kabi muamolar dolzarb hisoblanadi.

Respublikamiz chorvachiligida amalga oshirilayotgan tub islohatlar va keng ko'lamli tarkibiy o'zgarishlar natijasida yildan-yilga chorva mollarining bosh soni ko'payib, mahsuldorligi oshib bormoqda. Bu borada chorva mollarning kasalliklariga qarshi kurashishga qaratilgan, jumladan golshtin zotli sigirlar orasida vitamin-minerallarning yetishmovchiligi natijasida reproduktiv faoliyatning buzulishi, akusher-ginekologik kasalliklarning tarqalishi, servis davrining uzayishlarining kelib chiqishida alimentar omillarning ahamiyati, rivojlanish mexanizmlari, ertachi aniqlash usullarini o'rganish, reproduktiv faoliyatni rag'batlantirish usullarini takomillashtirish hamda amaliyotga tadbiiq etish bugungi

¹ Eshburiev B.M. Veterinariya akusherligi. Darslik.Toshkent. 2018. 376 b.

² Махмуд Ахмед Хамид Минерально-витаминная профилактика и терапия акушерской патологии коров послеродового периода. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата ветеринарных наук. Казань-2005.-С. 24-28.

kunda veterinariya fani va amaliyoti oldidagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son «O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2019 yil 28 martdagi PF-5696-son «Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonida alohida urg‘u berilganligi, bu borada qoramollarning bepusht qolishi va akusher-ginekologik kasalliklariga tezkor tashxis qo‘yish, ularni davolash va oldini olishga qaratilgan chora tadbirlarni ishlab chiqish, hamda ularni amaliyotga joriy etish muhimdir 2019 yil 28 martdagi PQ-4254-son «O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi, 2020 yil 29 yanvardagi PQ-4576-son «Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va 2022 yil 8 fevraldagi PQ-121-son «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»³gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sigirlar reproduktiv faoliyatini susayishi natijasida ginekologik kasalliklarni hamda bepushtliklarni keltirib chiqaruvchi alimentar, simptomatik, iqlim va ekspulatsion omillar natijasida xo‘jaliklarda sigirlarda uchraydigan jinsiy kasalliklarning sabablarini aniqlash, davolash va oldini olish usullarini ishlab chiqish va takomillashtirish bo‘yicha xorij olimlardan G.Ye.Laming, James Spain, G.James, J.S.Hogan, M.Clagett-Dame, N.Chapinal, C.N.Brozoz, S.Borsberry, L.D.Satter va boshqa olimlar tomonidan keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan.

MDH olimlaridan Н.И.Берзин, В.В.Богомолов, И.А.Бойко, А.Н.Добудко, Н.С.Бухтилова, В.И.Левченко, Н.А.Судаков, В.Н.Виноградов, Т.П.Емелянова, И.М.Волохов, Д.В.Воронов, В.В.Горбачев, И.П.Кондрахин, В.И.Левченко, Е.О.Крупин, И.П.Лигомина, Махмуд Ахмед Хамид, В.Т.Самохин, hamda Respublikamiz olimlaridan N.Ya.Aliyev, V.F.Murtazin, O.U.Kuldoshev, A.Yuldashev, Q.N.Norboyev, B.Bakirov, V.M.Eshburiyev, S.B.Eshburiyev, S.Jumanov, B.Nurmuxammedov, SH.K.Baliyev, S.Abdiyev, J.N.Ochilov va boshqalar tomonidan urg‘ochi hayvonlarning reproduktiv organlarini susayishi natijasida bepushtlik va tuqqandan keyingi ginekologik kasalliklarning sabablari va kechish xususiyatlari o‘rganilgan, davolash va oldini olish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan va ilmiy jihatdan asoslangan.

Zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlanayotgan chorvachilik fermer xo‘jaliklari sharoitida golshtin zotli sigirlarning kuyga kelib otalanish davrini

3. 2022 yil 8 fevraldagi PQ-121-son «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»

choʻzilib ketishi, tuqqandan keyingi ginekologik kasalliklarning etiologiyasi, diagnostikasi, davolash va oldini olish chora-tadbirlari toʻliq oʻrganilmagan, shuningdek adabiyotlarda sigirlar, tuqqandan keyingi alimentar bepushtliklarni, ginekologik kasalliklarni davolash va oldini olishda yuqori samara beruvchi usul va vositalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutining Veterinariya sanitariya va urchitish patologiyasi laboratoriyasi ilmiy-tematik rejasining ITD-DVK “Oʻzbekiston sharoitida hayvonlar uchun zoogigenik parametrlarni ishlab chiqish va zotli mollar uchun veterinariya-sanitariya, urchitish patologiyasi boʻyicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish” (2021-2025 yy.), Bosqich V, “Xorijdan keltirilayotgan zotli mollarning reproduktiv organlari kasalliklari hamda mastit kasalligini diagnostiksi, davolash va zoogigienik parametrlar asosida profilaktik chora tadbirlarni tadbiiq etish” (2021-2025 yy.) mavzusidagi ilmiy-amaliy va innovatsion loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi golshtin zotli sigirlar reproduktiv faoliyatini susaytiruvchi alimentar omillarning sabablarini oʻrganish va oldini olishda yuqori samara beruvchi usullarni takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- Golshtin zotli sigirlarda alimentar bepushtliklarni tarqalishini aniqlash;
- golshtin zotli sigirlarda alimentar bepushtliklarni sabablarini aniqlash;
- sigirlar qonini morfologik va biokimyoviy oʻzgarishlarni aniqlash;
- sigirlarda alimentar bepushtliklarni oldini olishda umumiy va maxsus taʼsir qiluvchi ozuqaviy qoʻshimchalarni qoʻllash;
- sigirlarda bepushtliklar va servis davrini qisqartirishga asoslangan profilaktik tadbirlarni takomillashtirish.

Tadqiqotning obʼekti sifatida Buxoro viloyatining Romitan, Jondor, Qorakoʻl tumanlaridagi qoramolchilikka ixtisoslashgan chorvachilik fermer xoʻjaliklari sharoitida parvarishlanayotgan golshtin zotiga mansub sigirlar, ulardan olingan qon va jinsiy aʼzolaridan olingan ekssudat namunalari, simptomatik va davolash vositalari hamda ozuqaviy qoʻshimchalardan foydalanildi.

Tadqiqotning predmeti tajribalar oʻtkazilgan xoʻjaliklardagi golshtin zotli 9-oylik sutdan chiqarilgan boʻgʻoz va yangi tuqqan sigirlarning akusher-ginekologik dispanserlash natijalari, ular qonining morfologik va biokimyoviy koʻrsatkichlari, davolash, oldini olishda foydalanilgan biologik ozuqaviy qoʻshimchalar va preparatlar hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlarda klinik, morfologik, biokimyoviy, mikroskopik, patologoanatomik, akusher-ginekologik, toʻgʻri ichak orqali va UTT (ultratovush) tekshirish, kasal hayvonlarni davolash uchun preparatlar aralashmasi tayyorlash, ozuqaviy qoʻshimchalar va organizmga yuborish, variatsion va korrelyatsion taxlil usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Buxoro viloyatining Romitan, Jondor, Qorako'l tumanlaridagi fermer xo'jaliklarida tekshirilgan jami 535 bosh sigir va g'unojinlarning ginekologik kasalliklar 45,4 %, shulardan alimentar bepushtliklar 27,1 % ekanligi aniqlangan;

sigirlarning kunlik ratsionda Marganes 400 mg, yod 10 mg, temir 90 mg, oltingugurt 1 gr, vitamin D 10000 (XB), vitamin E 500 mg ga kamligi bepushtliklarni kelib chiqishiga sabab bo'lishi aniqlangan;

sigirlar qonidagi eritrositlar tajriba boshida (8 oylik bo'g'oz) 4,85 mln/mkl, bo'g'ozlikning 9-oyida 5,6 mln/mkl, laktatsiyaning 1-oyida 7,0 mln/mkl; bo'lishi ozuqaviy qo'shimchalar ta'sirida eritrositlar miqdorining me'yorga kelishini ta'minlanishi aniqlangan;

sigirlar qon zardobidagi ALT va AST fermentlari o'rganilganda tajriba boshida (8 oylik bo'g'oz) 45,7 - 111,4 u/l, bo'g'ozlikning 9-oyida 36,6 - 110,6 u/l ni, laktatsiyaning 1- oyida 28,9 - 99,8 u/l ekanligi va ular ta'sirida jinsiy qo'zg'aluvchanlikni, kuyga kelish jarayonini tezlashtirishi va jinsiy energiyani tiklashga yordam berishi aniqlangan;

tajribadagi yangi tuqqan sigirlar kunlik ozuqasiga "VILOFOSS" va "Renomix" ozuqaviy qo'shimchasi 150 g dan qo'shib oziqlantirilganda sigirlar bachadonining o'z holiga qaytishi 25-30 kunni, kuyga kelish vaqti 38-40 kunni tashkil etishi hamda otalanishini 90-95 foizga oshishi aniqlangan;

sigirlarda bepushtliklar va servis davrini qisqartirish maqsadida ozuqaviy qo'shimchalar berish orqali profilaktik tadbirlar takomillashtirildi, natijada servis davrini 55-60 kun bo'lishiga va urug'lantirilgan sigirlarni 100% otalanishi ga erishilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qoramolchilik fermer xo'jaliklari sharoitida golshtin zotli sigirlar bepushtliklarni tarqalishi aniqlangan;

golshtin zotli sigirlar bepushtliklar va qisir qolish sabablarini alimentar, simptomatik va mikroiklimga bog'liq omillar ekanligi tadqiqotlarda isbotlangan;

golshtin zotli sigirlarni jinsiy faoliyatini rag'batlantiruvchi ozuqaviy qo'shimchalarni qon tarkibidagi fermentlar miqdoriga ijobiy ta'siri tajribalarda isbotlangan;

golshtin zotli sigirlarni jinsiy faoliyatini rag'batlantiruvchi ozuqaviy qo'shimchalarni qo'llash bilan servis davrini va otalanish foizini oshirish usullari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

vitamin-mineral moddalar yetishmovchiligi natijasida kelib chiqadigan bepushtliklarni va tuqqandan keyingi servis davrini uzoq bo'lib ketishini qisqartirishga asoslangan profilaktik tadbirlar majmuasi ilmiy isbotlangan;

Tadqiqotning natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tekshirishlarning zamonaviy uslub va vositalardan foydalanilgan holda o'tkazilganligi, birlamchi ma'lumotlarga statistik ishlov berish va ilmiy tahlil qilish, olingan nazariy natijalarning tajriba ma'lumotlari bilan to'g'ri kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar bilan taqqoslab, mukammal ilmiy tahlil etilganligi, Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti aprobat siya komissiyasi tomonidan ilmiy tadqiqot va birlamchi materiallarga ijobiy baho berilganligi, ilmiy

ishlar natijalarining amaliyot va ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotlar natijalarining ilmiy ahamiyati golshtin zotli sigirlarda vitamin-minerallar yetishmasligi natijasida bo‘ladigan bepushtlik va qisir qolishlarning etiologiyasi, uchrash darajasi, sabablari, klinik belgilari o‘rganilganligi, bepusht va qisir sigirlarda klinik, morfologik, biokimyoviy va akusher-ginekologik o‘zgarishlar tahlil qilinganligi, davolash va oldini olishda vosita va usullarning samaradorligi nazariy va amaliy jihatdan asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, hozirgi vaqtda chetdan keltirilayotgan nasilli va mahsuldor sigirlar orasida asosan (golshtin zotli) vitamin-minerallar yetishmasligi natijasida bo‘ladigan bepushtlik va qisir qolishlarning uchrash darajasi yuqorililigi ularni davolash va oldini olishda yaratilgan yangi usul va vositalarni amaliyotga joriy qilinishi natijasida sigirlarning sut mahsuldorligi oshishi, tug‘ish jarayonini yengil kechishi, tuqqandan keyingi kasalliklar bilan kasallanish 50-60% qisqarishi, servis davrini 55-60 kun tashkil etishi hamda otalanish koefitsienti 90-95% tashkil etishi natijasida fermer xo‘jaliklariga yetkazilayotgan iqtisodiy zararining oldi olinganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qlinishi. Golshtin zotli sigirlar reproduktiv faoliyatini rag‘batlantirish usullarini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar natijalari asosida:

«Sigirlarda yo‘ldosh ushlanib qolishini davolash va oldini olish» bo‘yicha tavsiyanoma ishlab chiqilgan va Buxoro viloyatining Romitan tumani “Alisher Saxovati” hamda Jondot tumani “Bo‘ston Nazar” chorvachilik xo‘jaliklaridagi golshtin zotli sigirlarning reproduktiv faoliyatini rag‘batlantirish maqsadida joriy qilingan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 24-iyun 2025 yil № 02/23-439-son ma‘lumotnomasi). Natijada sigirlarda tug‘ish jarayonini yengil kechishiga, tuqqandan keyingi kasalliklarning 50-60% qisqarishiga va otalanish koefitsiyentining 90-95 foizga oshishiga erishilgan;

Buxoro viloyatining Qorako‘l tumani “Barhayot Muhammad Rajab” chorvachilik xo‘jaligida vitamin-mineral moddalar yetishmasligi natijasida bepusht va qisir qolgan golshtin zotli sigirlarni davolash va oldini olish maqsadida ozuqasiga “VILOFOSS” va “Renomix” ozuqaviy qo‘shimchalarini qo‘shib oziqlantirishning takomillashtirilgan usuli amaliyotga joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 24-iyun 2025 yil № 02/23-439-son ma‘lumotnomasi). Natijada akusher ginekologik kasalliklarni kamayishiga, sigirlarning sut mahsuldorligi va buzoq olish soninig oshishiga erishilgan hamda sut mahsuldorligini hisobiga sarflangan 1 so‘m veterinariya xarajatlari uchun 5,51 so‘m, buzoq olish bo‘yicha hisobga olinganda 5,45 so‘mni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2023-2025 yillar davomida Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutining uslubiy va ilmiy kengashlarida muhokama qilingan. Barcha o‘tkazilgan ilmiy tajribalar

dalolatnomalar bilan tasdiqlangan jami 7 ta, 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 1 ta xorijiy, 2 ta Respublika ilmiy jurnallarida, 2 ta xalqaro va 5 ta konfrensiya to'plamlarida nashr etilgan. Olingan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 107 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida tadqiqotlar mavzusining dolzarbligi va zarurati, mavzuning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, tadqiqotning vazifalari, tadqiqotning obyekti, tadqiqotning predmeti, tadqiqotning uslublari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyot ma'lumotlarining tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida «**Golshtin zotli qoramollarni seleksiyasiga mansub qisqacha tasnifi**» deb nomlangan birinchi qismida Golshtin zotli sigirlarning kelib chiqishi ularning mahsuldorligi rivojlanish mexanizmi va boshqa zotlardan farqi yutuqlari, kamchiliklari seleksiyasi haqida xorijiy va respublikamiz olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari bayon qilingan.

Adabiyot manbalari tahliliga ko'ra, golshtin zotining kelib chiqish, yaratilish tarixi konstitutsiyasi ularning mahsuldorligi moslashuvchanligi adaptatsion holati oziqlanish tartibi va meyorlari boshqa zotlardan farqli tomonlari yoritilgan. «**Vitaminlar va mineral moddalarning mahsuldor sigirlarning jinsiy organlar faoliyati uchun biologik ahamiyati**» deb nomlangan ikkinchi qismida sigirlarning hayoti me'yorda kechishi uchun, ular ozuqasi tarkibida oqsillar, uglevodlar, yog'lar va suv bo'lishi bilan birgalikda vitamin va mineral moddalarning bo'lishi ham zarurdir, chunki bu moddalar ularni o'sishi rivojlanishi ko'payishi uchun va ko'payish organ hujayralarining yangilanishi, ularning xo'jaliklar uchun foydali ko'fsentining yuqorililigini saqlashida vitamin va minerallarning ahamiyati, sutdan chiqqan sigirlarni faol yayratish va to'yimli ozuqalar (oqsil, uglevod, yog' mineral moddalar va vitaminlarga boy) bilan ta'minlash hayvonlar sog'lig'ini yaxshilaydi, tug'ish jarayonini yengil kechishini va sog'lom buzoq olish, servis davrini qisqartiradi, yo'ldoshni tez tushishini ta'minlab, tuqqandan keyingi kasalliklarni oldini oladi ozuqa ratsionini to'laqiyatli bo'lishi qandni - proteinga

bo'lgan nisbati 1:1 talab etilgan miqdordan o'rtacha o'zgarishi 0,8-1,5:1 gacha bo'lishi, kalsiyni fosforga bo'lgan nisbati 2:1, o'rtacha o'zgarishi 1,5-2:1, kalsiyni magniyga bo'lgan nisbati 5,5:1; fosforni magniyga bo'lgan nisbati 2,5:1; kaliyni natriga bo'lgan nisbati 5:1; misni molibdenga bo'lgan nisbati 3,5-4,5:1 bo'lishi kerak. Sigirlar ozuqa ratsionining to'yimlilik darajasi organizmdagi qon ko'rsatkichlaridagi quyidagi elementlarning miqdoriga; umumiy oqsil 7,25-8,5 g/%, qand 40-70 mg/ %, kalsiy 9,5-13,5, fosfor 4,25- 6,5, karotin 0,46-0,65, magniy 1,8-2,0 mg/ % bog'liq bo'ladi bular o'z navbatida reproduktiv faoliyatga o'zining ta'sirini ko'rsatadi va sigirlardan foydalanish muddatini kamayishiga sabab bo'ladi.

«Mahsuldor sigirlar reproduktiv faoliyatini susayishi va vitamin-mineral moddalar almashinuv buzilishlarida organizmda bo'ladigan o'zgarishlar» deb nomlangan uchinchi qismida sigirlarda moddalar almashinuvi buzilishi bilan kechadigan kasalliklar hayvonlar orasida keng tarqalgan bo'lib, chorvachilikka katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Hayvonlarda moddalar almashinuvining buzilishlari mahsuldorlik va tana vaznining kamayishi, reproduktiv organ xususiyatlar va tabiiy rezistentlikning yomonlashishi hamda homilaning patologik rivojlanishi kuzatilib, yangi tug'ilgan hayvonlarda anatomik va fiziologik yetishmovchiliklar hamda ularning raxit bilan kasallanishi va o'limi ko'p uchrashi, vitaminlar va minerallar almashinuvi buzilishi ko'payish organlarining kasalliklari alimentar bepushtliklarga olib kelishining zo'rayishi bayon qilingn **«Mahsuldor sigirlar reproduktiv faoliyatini vitamin-mineral moddala yetishmovchiligi natijasida buzilishlarini oldini olish chora-tadbirlari»** turli olimlar tomonidan sog'in sigirlarda mikroelementlar va vitaminlar yetishmovchiligini profilaktika qilish maqsadida bir tonna aralashma tarkibiga 100 g E vitamini, D vitaminidan 80 mln XB, A vitaminidan 350 mln XB, 1524 g mis, 1100 g rux, 1000 g marganes, 1200 g temir, 24 g kobalt va 115 g yod aralashirilgan premiksdan bir boshga bir kunda 100 g dan ikki oy davomida berish va yuqori mahsuldor sigirlar ratsioniga qo'shimcha ravishda essensial mikroelementlarni tug'ishiga 15 kun qolgandan boshlab va tuqqandan keyin ham 100 kun davomida kiritish orqali organizmining energetik ehtiyojlarini to'la qondirish, modda almashinuvlarini ma'romlashtirish hamda hayvonlarning reproduktiv xususiyatlarini yaxshilash olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan.

Dissertatsiyaning **«Xususiy tadqiqotlar»** deb nomlangan ikkinchi bobida **«Tadqiqotlar joyi, ob'ekti va uslublari»** keltirilgan bo'lib, bunda tadqiqot joyi, ob'ekti va usullari haqida bayon etilgan. Ilmiy tadqiqot ishlari 2023-2025 yillar davomida Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutining «Veterinariya sanitariya va urchitish patologiyasi» laboratoriyasida, Samarqand shahar «Kamilla Med diagnostik», «Gipokrat Med Shifo» xususiy Tadqiqotlar Buxoro viloyatining Romitan tumani «Alisher saxovati», Jondor tumanidagi “Bo'ston Nazar” va “Baxtli Sanjar”, Qorako'l tumanidagi “Barhayot Muhammad Rajab” chorvachilik fermer xo'jaliklarida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi.

2023-2025 yillar davomida chorvachilik fermer xo'jaliklarida bo'lgan jami 835 bosh qoramollardan 552 bosh sigirlarda yil fasillari davomida akusher-

ginekologik dispanser tekshirishlar o'tkazildi. Qoramolchilik fermer xo'jaliklarida yuqumsiz xarakterdagi ginekologik kasalliklardan simtomatik, alimentar bepushtliklar, mastit, yo'ldosh ushlanib qolishi, endometrit, tuxumdonlar gipofunksiyasi va sariq tanasi, bachadon subinvolyutsiyasi kasalliklari ularning sabablari, rivojlanish xususiyatlari, diagnostikasi, klinik belgilari, qondagi morfobiokimyoviy o'zgarishlar, kasal hayvonlar umumiy podadan ajratilib, tadqiqotlar o'tkazilgan. Xo'jaliklarning chorvachilik bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlari, hayvonlarni saqlash va oziqlantirish sharoitlari, sut mahsuldorligi, har 100 bosh sigirdan buzoq olinishi, sigirlarning tug'gandan keyin kuyga kelishi, otalanishi va servis davrini tahlil qilish asosida poda sindromatikasi o'rganilgan.

Dissertatsiyaning **«Golshtin zotli sigirlar reproduktiv faoliyatini rag'batlantirishda, vitamin-mineral moddalarning biologik xususiyatlari»** deb nomlangan uchinchi bobining **«Golshtin zotli sigirlar reproduktiv faoliyatiga mineral moddalarning ta'siri»** deb nomlangan birinchi qismida sigirlar organizmiga vitamin va minerallar to'g'risida ularning reproduktiv faoliyat uchun o'rni fermentativ jarayondagi ahamiyati va bo'g'ozlikning oxirgi oylari to'g'risida ya'ni bo'g'ozlikning to'qqizinchi oyida moddalar almashinuvi assimilyasiya jarayoni yuqori bo'lib, unga tegishli fermentlar yuqori ta'sir ko'rsatishi, fermentlar faoliyati uchun ozuqa tarkibidagi vitamin-minerallar ahamiyati, bo'g'ozlikning to'qqizinchi oyida organizmda mineral moddalar to'planishi va bu paytda kalsiy, fosfor, natriy, magniy, temir, kobalt, mis, selen elementlar to'planishi. Ularning to'planishi homila skletining o'sishi yetilgan homilaning tug'ilishi va tug'ish jarayonining yengil kechishi to'g'risida ilmiy ma'lumotlar yoritilgan.

«Golshtin zotli sigirlarda akusher-ginekologik dispanserlash natijalari» deb nomlangan ikkinchi qismida "Alisher Saxovati" chorvachilik fermer xo'jaligida jami 185 bosh sigir mavjud bo'lib ularni akusher-ginekologik dispanserizatsiyadan o'tkazib qisir-bo'g'ozlikka rektal va UTT yordamida tekshirilganda 46 bosh (49,5%) sigirlarni har xil sabablarga ko'ra qisirligi aniqlandi. Bundan tashqari 4 bosh sigirda (4,3%) yo'ldoshni ushlanib qolishi, 7 boshi (7,5%) bachadon subinvolyusiyasi, 9 boshi (9,6%) endometrit bilan kasallanganligi va 27 bosh (29,0%) alimentar bepushtliklar aniqlandi.

"Bo'ston Nazar" chorvachilik fermer xo'jaligida hammasi bo'lib 141 bosh sigir mavjud bo'lib ularni akusher-ginekologik dispanserizatsiyadan o'tkazib qisir-bo'g'ozlikka rektal va UTT yordamida tekshirganimizda ulardan 31 bosh (56,4%) sigirlarni har xil sabablarga ko'ra qisirligi aniqlandi. Bundan tashqari 2 bosh sigirda (3,6%) yo'ldoshni ushlanib qolishi, 5 boshi (9,09%) bachadon subinvolyusiyasi, 7 boshi (12,7%) endometrit bilan kasallanganligi va 10 bosh (18,2%) alimentar bepushtliklar aniqlandi.

"Barhayot Muhammad Rajab" chorvachilik fermer xo'jaligida hammasi bo'lib 209 bosh sigir va g'unajinlar mavjud bo'lib ularni akusher-ginekologik dispanserizatsiyadan o'tkazib qisir-bo'g'ozlikka rektal va UTT yordamida tekshirganimizda ulardan 42 bosh (44,2%) sigirlarni har xil sabablarga ko'ra qisirligi aniqlandi. Bundan tashqari 6 bosh sigirda (6,3%) yo'ldoshni ushlanib qolishi, 8 boshi (8,4%) bachadon subinvolyusiyasi, 10 boshi (10,5%) endometrit

bilan kasallanganligi va 29 bosh (30,5%) alimantar bepushtliklar aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Sigirlarning akusher-ginekologik dispanserizatsiyasi natijalari

Xo'jaliklar nomi	Sigir va g'unojinlar soni	akusher-ginekologik kasalliklar		Qisir		Yo'ldosh ushlanib qolishi		Bachadon subinvolyutsi yasi		Endometrit		Alimantar bepushtliklar	
		bosh	%	bosh	%	bosh	%	bosh	%	bosh	%	bosh	%
“Alisher Saxovati”	185	93	50,27	46	49,5	4	4,3	7	7,5	9	9,6	27	29,0
“Bo'ston Nazar”	141	55	39	31	56,4	2	3,6	5	9,09	7	12,7	10	18,2
“Barhayot Muhammad Rajab”	209	95	45,45	42	44,2	6	6,3	8	8,4	10	10,5	29	30,5
Jami	535	243	45,4	119	48,9	12	4,9	20	8,2	26	10,7	66	27,1

«Sigirlarni saqlash va oziqlantirishning tahlili» deb nomlangan uchinchi qismida Buxoro viloyatining Romitan, Jondor, Qorako'l tumanlaridagi chorvachilik fermer xo'jaliklarida qoramollarning asosiy qismi molxonalarda, og'ilxonalarda bir joyda moslashtirilgan fermalarda xar xil oziqlantirish va saqlash sharoitlarida saqlanadi.

Golshtin zotli sigirlarda vitamin-minerallar almashinuvining buzulishi natijasida sigirlar reproduktiv faoliyatining patologiyasi alimantar omillar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularda klinik-fiziologik o'zgarishlarning yuzaga kelishiga hamda mahsuldorlik va rezistentlikning pasayishiga sabab bo'ladi.

Shu sababli Golshtin zotli sigirlar ratsionining tipi va tarkibini o'rganish orqali organizmning asosiy ozuqa elementlari va biologik faol moddalarga bo'lgan talabini qondirish darajasini o'rganish muhim masala hisoblanadi.

“Alisher Saxovati” chorvachilik fermer xo'jaligidagi sigirlar ratsioni tahlil qilinganda sigirlar ehtiyoji uchun vitamin va mineral moddalarning yetarli bo'lmaganligi aniqlandi shuni ma'lum qilish joizki Buxoro viloyatining mikroiklim ko'rsatgichlari ham sigirlar organizmi uchun o'zining ta'sirini ko'rsatadi bular haroratning birdan issib va tezda sovub ketishi, organizmga shilta polning yuqori ta'sir qilishi va tayyorlanadigan ozuqalarning tarkibiy qismida nitrit va nitratlarning ko'p bo'lishi hisoblanadi. Bular o'z navbatida sigirlar organizmiga qabul qilingan moddalarning to'liq o'zlashtirilmasligiga yoki organik moddalarning organizmda ko'payishi bilan mineral moddalarning so'rilishiga salbiy ta'sir qilishi bilan izohlash mumkin. Ratsionning mineral tarkibini tahlil qilish natijalariga ko'ra, undagi kalsiyni, oltingugurt, marganes, yod, vitamin D va vitamin E kamligi aniqlandi. Makro va mikroelementlarning organizmdagi nisbatlarning buzulishi organ va to'qimalaridagi organik, mineral, vitaminli

moddalar zahiralarning kamayishi sigirlarda turli xil akusher-ginekologik kaslliklarning ortib borishiga sigirlarni erta brak bo'lib podadan ajratilishiga sabab bo'ladi.

“Bo'ston Nazar” chorvachilik fermer xo'jaligidagi sigirlar ratsionining tahlili shuni ko'rsatdiki, ratsion tarkibining 39,3 % ni makka silosi, 17,86 % ni beda senaji, 14,28 % ni beda pichani, 7,14 % ni paxta shroti, 7,14% ni paxta sheluxasi va 14,28% ni olma to'ppalari tashkil etadi. Ratsionning umumiy to'yimliligi 8,69 ozuqa birligi, 1627 g hazmlanuvchi protein, 387,8 g qand, 568 mg karotin, 13,57 kg quruq modda borligi bilan tavsiflandi. Qand 323,2 g, anorganik fosfor 4,8 g, klechatka 322 g, yod 2,92 mg, marganes 288 mg va vitamin D 5978 XB borligi aniqlandi.

Ratsionda oziqlantirish me'yorlariga nisbatan 0,19 ozuqa birligiga, hazmlanuvchi protein 691 g, karotin 228 mg, quruq modda 0,57 kg, kalsiy 68 g, temir 1829 mg, oltingugurt 0,4 g va vitamin E 867 mgram borligi aniqlandi.

“Barhayot Muhammad Rajab” chorvachilik fermer xo'jaligidagi sigirlar ratsionining tahlili shuni ko'rsatdiki, ratsion tarkibining 60,7 % ni makka silosi, 14,28 % ni beda pichani, omiya yem 3,57 %, 7,14% ni paxta sheluxasi, 7,14 % ni paxta shroti va 7,14% ni uzum to'ppalari tashkil etadi. Ratsionning umumiy to'yimliligi 8,48 ozuqa birligi, 1419 g hazmlanuvchi protein, 373,2 g qand, 566 mg karotin, 105,8 g kalsiy, 41,3 g fosfor va 3556 g kletchatka borligi tajribalar davomida aniqlandi.

Dissertatsiyaning **«Golshtin zotli sigirlar reproduktiv faoliyatini rag'batlantirishda hamda akusher-ginekologik kasallaklarni oldini olishda ozuqaviy qo'shimchalarning (premix) ahamiyati»** deb nomlangan to'rtinchi bobining **«Golshtin zotli sigirlar reproduktiv faoliyatini rag'batlantirishda “VILOFOSS” va “Renomix” premikslerini qo'llash va ularni tasniflash»** deb nomlangan qismida Sigirlar reproduktiv faoliyatini rag'batlantirishda *“VILOFOSS”* va *“Renomix”* premikslerini o'rni va ahamiyati tarkibidagi moddalar jinsiy organlar faoliyatiga va yangi tuqqan sigirlarning tuqqandan keyigi bachadon va tuxumdonlarda bo'ladigan patologik jarayonlarga, servis davriga, kuyga kelib otalanish jarayonlariga, jinsiy siklni bosqichlarida o'zining ta'sirini namoyon qila boshlashi va birinchi sikl davomida sigirlar tanasida gonodotrop va tuxumdon gormonlari muvozanatining o'zgarishi yuzaga keladigan butun bir morfofiziologik o'zgarishlar sodir bo'lishi kuzatildi. Jinsiy sikl davomida umuman organizmda va ayniqsa jinsiy a'zolarida sodir bo'ladigan anatomik va fiziologik o'zgarishlar va bu o'zgarishlarning klinik ko'rinishlariga qarab jinsiy sikl bir necha bosqichlarga bo'linishi. Proestrus oldingi, estrus aniq jinsiy faoliyat bosqichi, metastaz, diestrus dam olish bosqichlarining aniq namoyon bo'lishi ozuqaviy qo'shimchalarning qo'shib berilishi bilan aniq namoyon bo'lishi tadqiqotlarda aniqlanganligi keltirilgan. va organizmdagi fermentlar uchun ozuqaviy premiks tarkibidagi minerallar koferment sifatida ishtirok etib borishi shuning bilan birgalikda aktivatorlik ta'sir ko'rsatishi. Organizmda kechadigan kimyoviy reaksiyalarni fiziologik to'g'ri borishi ularning o'rni yuqoriligi, organizmdagi ALT (Alaninaminotransferaza), AST (Aspartataminotransferaza), GGA (Gamma-

glutamiltranspeptidaza), LDG (Laktatdehidrogenaza) fermentlarini faoliyatini boshqarilishida qatnashib jinsiy sikl bosqichlarining to'liq namoyon bo'lishini ta'minlashi tekshirishlarda aniqlangan.

«Golshtin zotli sigirlarning klinik-fiziologik ko'rsatgichlari» deb nomlangan qismida Buxoro viloyatining Romitan, Jondor va Qorako'l tumanlari chorvachilik fermer xo'jaliklaridagi sutdan chiqarilgan 9 oylik bo'g'oz sut berish davrining 1- oylarida sut berayotgan sigirlardan 3 boshdan "o'xshash juftliklar" tamoyili asosida etalon guruhlar ajratilib, ularda ginekologik dispanser tadqiqotlar o'tkazildi.

Buxoro viloyati Romitan tumani "Alisher Saxovati" qoramolchilik fermer xo'jaligidagi sigirlar yilning barcha fasllarida asosan bir joyda bo'lingan xonalarda parvarishlanadi. Shuning uchun sigirlarda gipovitaminozlar, tug'ruqdan keyingi falaj, yo'ldoshni ushlanib qolishi, bachadon gipofunksiyasi, alimantar bepushtliklar kabi yuqumsiz xarakterdagi kasalliklar ko'p qayd yetilishi bilan ifodalanadi.

Barcha xo'jaliklarda akusher-ginekologik dispanser tadqiqotlar davrida tekshirilgan sigirlarning umumiy ahvoli qoniqarli, semizligi o'rtachadan past, ishtahasi pasaygan. Qish va erta bahor oylarida barcha xo'jaliklardagi sigirlarning 50-60 % da ishtahaning o'zgarishi (lizuxa), teri va shilliq pardalarning quruqlashishi, teri elastikligining pasayishi, teri qoplamasining hurpayishi, yaltiroqligining pasayishi va sinuvchan bo'lishi, alopesiya, konyunktivitlar, kseroftalmiya (ko'zning quruqlashishi) kuzatildi.

Tekshirishlar davomida barcha xo'jaliklardagi bo'g'oz sigirlarning tana harorati fiziologik me'yorlar chegarasida bo'lib, bir daqiqadagi yurak urishi soni 1-xo'jalikdagi sigirlarda tajriba boshida 65 marta, bo'g'ozlikning 9 oyida 62 marta, laktatsiyaning 1- oyida bu ko'rsatkichlar 62 martani tashkil etdi. 2- xo'jalikdagi sigirlarda shunga mos ravishda o'rtacha tajriba boshida 67 marta, bo'g'ozlikning 9 oyida 66 marta, laktatsiyaning 1- oyida bu ko'rsatkichlar 64 martaligi (me'yor - 1 daqiqada 60-80 marta) qayd etildi. 3-xo'jalikdagi sigirlarda tajriba boshida 69 marta, bo'g'ozlikning 9- oyida 65 martaga teng bo'ldi, laktatsiyaning 1 oyida bu ko'rsatkichlar 61 martani tashkil etdi.

Hayvonlarda bir daqiqadagi nafas soni 1-xo'jalikdagi sigirlarda bo'g'ozlikning 9 oyida o'rtacha $26,5 \pm 0,5$ martani (me'yor bir daqiqada 12-25 marta) tashkil yetib, bu ko'rsatkich laktatsiyaning 1- oyida $25 \pm 0,5$ martani tashkil qildi.

2-xo'jalikdagi sigirlarda bo'g'ozlikning 9- oyida o'rtacha $27,1 \pm 0,4$ martani tashkil etib, laktatsiyaning 1- oyida $25,4 \pm 0,5$ martani tashkil qildi. 3-xo'jalikdagi sigirlarda shunga mos ravishda o'rtacha $24 \pm 0,5$ va $22 \pm 0,5$; martani tashkil etdi.

Sigirlarda oshqozon oldi bo'limlarining 2 daqiqadagi qisqarishlari soni tekshirishlarning boshida 1-xo'jalikda 9 oylik bo'g'oz sigirlarda o'rtacha $3 \pm 0,22$ martani tashkil etgan bo'lsa, (me'yor 2 daqiqada 3-5 marta) tekshirishlarning oxiriga kelib laktatsiyaning 1-oyida o'rtacha $4 \pm 0,3$ martani tashkil yetdi. 2-xo'jalikdagi sigirlarda 9 oylik bo'g'ozlik davrida o'rtacha $3 \pm 0,4$ martani tashkil yetgan bo'lsa, laktatsiyaning 1- oyida o'rtacha $4 \pm 0,3$ martani tashkil yetdi. 3-

xo‘jalikdagi sigirlarda shunga mos ravishda o‘rtacha $3\pm 0,24$ va $3\pm 0,5$; martagacha kamayishi aniqlandi.

Sigirlarda bir joyda saqlanishi, homilaning jadal rivojlanishi hisobiga katta qorin devorining qisilishi, bir tomonlama silos-konsentrat tipda oziqlantirish, ozuqalar sifati va to‘yimligining pastligi bilan izohlash mumkin.

Sigirlar bo‘g‘ozlikning oxirgi davriga kelib yurak urishining tezlashishi, birinchi tonning kuchayganligi va ikkiga bo‘linganligi yurak mushaklarida miokardiodistrofiya rivojlanganligini bildiradi. Bo‘g‘ozlik davrining oxirlashuvi bilan bog‘liq ravishda nafas sonining tezlashuvi kuzatildi 2-jadval.

2-jadval

Golshtin zotli sigirlarning klinik-fiziologik ko‘rsatkichlari

Xo‘jalik	Tekshirishlar vaqti	Tana harorati, °C	Puls soni, bir daqiqada	Nafas soni, bir daqiqada	Ruminatsiya, ikki daqiqada
“Alisher Saxovati”	Tajriba boshida	$37\pm 0,4$	$65\pm 0,2$	$27\pm 0,3$	$2\pm 0,6$
	Bo‘g‘ozlik 9-oy	$36\pm 0,8$	$62\pm 0,6$	$26,5\pm 0,5$	$3\pm 0,22$
	Laktatsiya 1-oy	$37\pm 0,4$	$62\pm 0,4$	$25\pm 0,5$	$4\pm 0,3$
“Bo‘ston Nazar”	Tajriba boshida	$38,4\pm 0,1$	$67\pm 0,1$	$29\pm 0,1$	$3\pm 0,2$
	Bo‘g‘ozlik 9-oy	$38\pm 0,5$	$66\pm 0,6$	$27,1\pm 0,4$	$3\pm 0,4$
	Laktatsiya 1-oy	$37\pm 0,4$	$64\pm 0,4$	$25,4\pm 0,5$	$4\pm 0,3$
“Barhayot Muhammad Rajab”	Tajriba boshida	$39\pm 0,0$	$69\pm 0,2$	$28\pm 0,5$	$2\pm 0,5$
	Bo‘g‘ozlik 9-oy	$38\pm 0,2$	$65\pm 0,6$	$24\pm 0,5$	$3\pm 0,24$
	Laktatsiya 1-oy	$37\pm 0,1$	$61\pm 0,4$	$22\pm 0,8$	$3\pm 0,5$

